

**S.R.Bobokalonov**  
**Buxoro viloyati Turizm**  
**boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari,**  
**Buxoro davlat universiteti**  
**mustaqil izlanuvchisi, fil.f.n.**

## SHIRIN QISHLOG'IDA ETNO-TURIZM MUHITINI YARATISH VA UNI JOZIBADOR DESTINATSIYAGA AYLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro viloyati Vobkent tumanida joylashgan Shirin qishlog'ida etno-turizm muhitini yaratish va uni jozibador destinatsiyaga aylantirish istiqbollari, qishloqni turizm shaharchasiga aylantirish bosqichlari ishlab chiqilib, ushbu maskanga yil davomida 5 mingdan ortiq ichki va xalqaro turistik oqimni jalb qilish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm qishlog'i, etno-turizm muhiti, turistik hudud, turistik destinatsiya, jozibadorlik, barqaror rivojlanish, jozibadorlik omillari, jozibadorlik ko'rsatkichlari.

### **Kirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-sonli Farmoni talablariga asosan Buxoro viloyati tuman hamda shaharlarning turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlariga tashrif buyuradigan xorijiy hamda mahalliy sayyoohlarga taqdim etiladigan noan'anaviy, yuqori sifatli xizmat turlarini kengaytirish va mavjudlarining imkoniyatlarini yanada yaxshilash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida alohida qayd etilgan, ustuvor vazifa sifatida turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish uchun ushbu sohani rivojlantirish mumkin bo'lgan marshrutlardagi obyektlar sonini ko'paytirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq "Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi "Qo'rg'on" va "Chorsu" mahallalarida "Turizm mahallasi", Vobkent tumanidagi Shirin qishlog'ida "Shirin turizm etno qishlog'i", Ahmad Donish ko'chasida "Turizm ko'chasi", Buxoro shahridagi "Turki Jandi" mahallasida "Turizm mahallasi"ni tashkil qilish" hamda Buxoro viloyati hokimining 2020-yil 18-martdagи 128-sonli "Viloyatning tuman (shahar)larida turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda "Turizm mahallasi" va "Turizm qishlog'i"ni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019 yil 21 sentyabrdagi "2019-2023 yillarda Buxoro viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 794-son qarorining 8-ilovasi, chora-tadbirlar dasturining 31-bandida Vobkent tumanidagi Chorbog'kent MFY, Shirin qishlog'ida qadimiy quduq, tepalik, eski Zarafshon daryosi o'zani, qadimiy sandal uylar, dehqonchilik asbob-anjomlarini tayyorlash, ot va tuyada sayr qilish, qadimiy tosh tegirmon, asalarichilik, sho'r danak pishirish, nisholda tayyorlash kabi udumlarni "sahnalaشتirish" bo'yicha qishloq hayotini ko'rsatib beradigan "etno turizm"ni tashkil etish belgilab qo'yilgan. Tadqiqot predmeti Shirin qishlog'ida etno muhitni yaratish bo'lib, uning dolzarbligidan dalolat beradi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Turistik potensialga ega hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirish muammolarini xorijlik olimlardan S.Formica [2], N.Leiper [3], S.Plog [4], V.Altxoflar [5] ilmiy tadqiq etganlar. O'zbekistonlik olimlardan X.M.Mamatqulov [6], N.S.Ibragimov [7] va B.N.Navro'z-zodalar [8]

tomonidan turistik oqimni hosil qilish qobilyatining uzviy davomi o'laroq, uni to'g'ri boshqarish, yo'naltirish mavsumiy o'zgarishlar fonida yangilanuvchan va dinamik talablarga moslashish, texnologik transformatsiya davriga xos bo'lgan xususiyatlarni inobatga olgan holda xizmatlar taklifi salmog'ini oshirish va strategik rejalarini ishlab chiqish, yangi turistik marshrutlarni yaratish asosida destinatsiyalarni shakllantirish masalalarini chuqr tadqiq etishgan.


### Tadqiqot metodologiyasi

Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi Shirin qishlog'iда "Shirin turizm etno qishlog'i"ni tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollarini aniqlashga oid tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tizimli tahlil, konseptual yondashuv, ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, statistik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

### Tahlil va natijalar

Buxoro viloyati Vobkent tumanı Shirin qishlog'i (1-rasm) qadimgi Zarafshon daryosi o'zanida joylashgan hudud bo'lib, olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra taxminan 2500 yillik tarixga ega deb hisoblanadi. Qishloq aholisi qadimgan, muntazam ravishda dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo sotiq ishlari bilan shug'ullanib kelgan.

Ushbu betakror qishloq hududida bir qator madaniy meros obyektlari va uzoq davrga borib taqaluvchi turli-tuman milliy urf odatlari hozirgi kunga qadar avloddan-avlodga me'ros bo'lib, saqlanib kelmoqda. Bularga misol tariqasida, sho'r danak, quruq mevalar, rangba-rang milliy shirinliklar tayyorlash, xusht'am poliz ekinlarini yetishtirish va nodir hunarmandchilik mahsulotlarini yaratish singarilarni keltirib o'tish mumkin. Shu bilan bir qatorda, qishloqda istiqomat qiluvchi ayollar bu kabi mahsulotlarni tayyorlash jarayonida bitta xonadonga yig'ilishib, qadimgi urf odatlarga mutanosib tarzda, milliy kuy-ko'shiqlarni ijro etish, laparxonlik, qadimiy-tarixiy rivoyatlar hamda an'anaviy she'rxonliklarni o'tkazib, birgalikda mehnat qilishni odat tusiga aylantirib olishgan.




1-rasm. Shirin qishlog'ining fazodan ko'rinishi<sup>1</sup>

Bundan tashqari, hududda turizmni yanada rivojlantirish hamda sayyoohlar uchun qishloq hayotini boricha, tabiiy ko'rsatib berish inkonini beruvchi bir qator shart-sharoitlar mavjud bo'lib, hozirgi kunda etnik qishloq turizm klasterini barpo etish bo'yicha amaliy sa'yi-harakatlat bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, qadimiy Zarafshon daryosi o'zanida turizm maskanini bunyod etish, nisholda va sho'r danak tayyorlash mahorat darslari, turli xildagi qadimiy taomlarni tayyorlash, qishloq tandirlarida non yopish, asal tortish jarayonlari, halim pishirish va qadimiy tosh tegirmonda yorma tayyorlash, uzoq davrlarga mansub urf-odatlar namoyishi, milliy hunarmandchilik xonadonlari va boshqa shunga o'xshash juda ko'plab

<sup>1</sup> <https://earth3dmap.com/#?l=shirin+qishlog+vobkent> xaritasidan olindi

namoyish turlariga alohida urg‘u qaratilib, tashkiliy masalalarda alohida va izchil intilishlar ko‘zga tashlanmoqda.

Shirin qishlog‘ining destinatsion turizm jozibadorligi shakllantirilishi natijasida bosqichma-bosqich unga yondosh hududlarning turizm sayohatgohi sifatida shakllanish jarayonlari ham boshlanib, turistlar e’tibori, ya’ni boshlang‘ich darajadagi qiziqishlari mazkur hududlarga qaratila boshlaydi va asosiy destinatsiya (Shirin qishlog‘i) muhiti 1..n; destinatsiyalar jozibadorligi yuzaga kelishida tayanch vazifasini o‘taydi (2-rasm).



**2-rasm. Shirin etno turizm destinatsiyasi jozibadorlik muhiti<sup>1</sup>**

Bizning fikrimizcha, mayjud resurslar va tabiiy imkoniyatlar potensialini inobatga olib, mahalliy aholi vakillarining mehnatsevarligi, tadbirkorligi va milliy an‘analarni davom ettirishga bo‘lgan intilishlari e’tiboridan Shirin qishlog‘ida etno turizm muhitini shakllantirishning mexanizmlari sifatida quyidagilarni alohida qayd etib o‘tish lozim:

A) Vobkent tumani, “Shirin MFY”ni “Turizm mahallasi”ga aylantirish maqsadida hududga olib boruvchi asosiy yo‘llar va yo‘l bo‘yi turizm infratuzilma obyektlarini joriy va mukammal ta’mirlash hamda rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirish:

- sayyoohlarning destinatsiyada maroqli hordiq chiqarishlarini ta’minlash maqsadida “etno turizm” qishlog‘i xavfsizlik tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida mukammallashtirish, ta’mirtalab yo‘llar ro‘yxatini shakllantirish, sarf-xarajatlar smetasini tayyorlash, tegishli tashkilotlarga yetkazish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish;

- ko‘chalarni nomlash hamda yo‘l bo‘ylarida talab darajasidagi, namunali yo‘l ko‘rsatkichlarini o‘rnatish;

- piyodalar va imkoniyati cheklangan shaxslarning erkin harakatlanishi uchun yo‘l bo‘ylarida inkiyuziv piyodalar o‘tish yo‘laklari tashkil etish;

- “Shirin” MFYdagi ma’nан eskirgan simyog‘och ustunlarni demontaj qilish ishlarini yakunlab, zamonaviy temir beton ustunlarni butun hudud bo‘ylab o‘rnatish;

- mahalla hududidni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash maqsadida 3 ta yangi transformator o‘rnatish;

- yo‘l bo‘ylarida zamonaviy yoritish uskunalarini, xususan quyosh panellari orqali ishlaydigan texnologiyalarni o‘rnatish;


- mahalla yo‘llarida avtomobillar harakat tezligini chekllovchi maxsus yo‘l belgilari va radar o‘rnatish;

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

- mahalla hududida Wi-Fi nuqlarini barpo etish;
- zamonaviy va qulay sanitariya-gigiyena shahobchalarini barpo etish;
- qishloqning kirish qismida milliylik uslubidagi ko‘rkam darvoza bunyod etish;
- “Shirin” MFY bo‘ylab o‘tuvchi aloqa tarmoqlari kabellarini tartibga keltirish va ustunlarini yangilash;
- qishloqning tarixi, mavjud resurslari, imkoniyatlari, qulayliklari borasidagi ma’lumotlarni to‘plash hamda ularni xorijiy tillarga tarjima qilish;
  - “etno turizm” qishlog‘ining kirish qismida ma’lumot peshtaxtasini joylashtirish;
  - obyekt yo‘laklarida ma’lumot beruvchi axborot ko‘rsatgichlarni (o‘zbek, rus va ingiliz tillarida) joylashtirish;
  - jismoniy imkoniyatlari cheklangan va keksa yoshdagi sayyoohlар uchun qulay shart-sharoit (panduslar, bo‘rtma yuzali yo‘laklar, radio mayoq)lar yaratish;
- B) Mahalla hududida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish doirasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan amaliy chora-tadbirlar sifatida quyidagilarni qayd etib o‘tamiz:
  - hududda doimiy ravishda tozalik ishlarini olib boruvchi maxsus obodonlashtirish guruhini (15 kishilik) tashkil etish;
    - mahalla hududidan oqib o‘tuvchi ariq va zovurlarni tozalash natijasida chiqadigan qum va chiqindilarini yo‘l bo‘ylaridan muntazam tashib ketish tizimini joriy qilish;
    - aholi tomorqalari, uylarning old qismini obodonlashtirish va daraxtlarga chiroyli shakl berish, oqlash, tomorqalardan unumli foydalanish, manzarali gullarni parvarish qilish;
    - mahallaning soya salqin joylarida qulay va ekzotik shakldagi o‘ziga xos o‘rindiqlar tashkil etish;
      - mahallaning ovloq joylarida to‘planib qolgan chiqindilarini tozalash, ko‘chalarda maxsus chiqindi qutilarini o‘rnatish, atrof-muhitni muntazam monitoring qilish;
      - maishiy va sanoat chiqindilarini yoqib yuborish holatlarini nazorat qilish maqsadida tegishli tashkilotlar bilan birgalikda amaliy sa‘y-harakatlar rejasini ishlab chiqish;
    - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-sonli Farmonda belgilangan talablardan kelib chiqib, hududda 20 ta oilaviy mehmon uylari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
      - keng jamoatchilik orasida targ‘ibot uchrashuvlarini tashkil etish;
      - oilaviy mehmon uylarini tashkil etish istagida bo‘lgan tashubbuskorlar ro‘yxatini shakllantirish;
      - oilaviy mehmon uyi tashkil etish istagida bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga reyestrdan ko‘chirma berilishi va faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida amaliy yordam ko‘rsatish.

Shunday qilib, tashkiliy masalalar bilan bog‘liq yo‘nalishlarni tizimli ravishda tartibga solish, destinatsiya menejmentining zamonaviy uslubiyotini hududning turizm xizmatlarini tashkil etish va boshqarish jarayonlarida qo‘llash, mahalliy aholi vakillariga qabul qilinadigan mehmonlar oqimining oshirib borilishi hududga qay darajada katta iqtisodiy manfaatlar olib kelishini to‘g‘ri tushuntirish maqsadida targ‘ibot-tashviqot ishlarini yo‘lga qo‘yish, noan’anaviy mehmondo‘stlik usullarini hudud milliyligi va an‘analariga mos tarzda qabul qilish va qo‘llash Shirin turizm sayohatgohi faoliyatining rivojlanishiga asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro miqyosda jozibador sanaluvchi turizm qishloqlari faoliyati tajribalaridan kelib chiqqan holda Shirin qishlog‘ini jozibador turizm destinatsiyasiga aylantirish omillari tahlil qilib chiqildi, natijada, 3-rasm shakllantirildi va bizning fikrimizcha, jami 10 ta muhim omillar mazkur sayohatgohda jozibadorlik muhitini shakllantirishda nihoyatda muhim o‘rin tutadi.



### **3-rasm. Shirin qishlog'ini jozibador turizm destinatsiyasiga aylantirishning muhim omillari<sup>1</sup>**

Fikrimizcha, Shirin etnoturizm qishlog'ida quyidagi xizmat ko'rsatish yo'nalishlarini rivojlantirish hamda xizmat turlarini tashkil etishga barcha zaruriy imkoniyatlar mavjud:

- “etno turizm” qishlog'i haqidagi targ'ibot materiallari (buklet, flayer va boshqalar) tayyorlash hamda suvenir buyumlar savdosiga mo'ljallangan do'konlarni barpo etish;

- “etno turizm” qishlog'i bo'ylab ekskursiyalar xizmatini (gid va gid tarjimon xizmati bilan birga) tashkil etish;

- avtotransportlar uchun avtoturargohlar xizmatini tashkil etish;
- tabiat qo'ynida gastronomik turizmnı rivojlantirish;
- “etno turizm” qishlog'i atrofida joylashgan ko'llarda baliq ovini tashkil etish;
- ov turizmini tashkil etish;
- qadimgi sandal uylarni ko'paytirish;
- tandirda non yopish, sho'r danak pishirish va nisholda tayyorlash jarayonlarida sayyoohlarning bevosita ishtirokini ta'minlash;
- alohida oziq ovqat do'konlari va kafelarni tashkil etish.

Hunurmandchilik turlari bo'yicha xizmatlarni tashkil etish va bunda milliy hunarmandchilik mahsulotlarining yangidan-yangi namunalarini ko'paytirish, bunda kichik hajmli, ixcham va qulay suvenirlarni ishlab chiqarish zaruratini inobatga olish:

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

- mahalla hududida faoliyat yuritayotgan usta-hunarmandlar ro'yxatini shakllantirish;
- milliy hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash va sotish markazlarini tashkil etish uchun joy ajratish.

Bundan tashqari, mahalliy tashabbuskor tadbirkorlar tomonidan quyidagi hunarmandchilik turlari bo'yicha markazlar tashkil etilishi ko'zda tutiladi:

- kulolchilik, kashtado'zlik, zardo'zlik, gilamboflik, patdo'zlik, temirchilik, yog'och o'ymakorligi, jundan ip yigirish, mato to'qish, milliy qo'g'irchoqlar yasash, miniatyura san'ati, paxtadan chopon, yostiq, ko'rpacha, nimcha tayyorlash, savat to'qish, bo'yraboflik, qadimiy usulda namat (kigiz) tayyorlash;

– mahallada mavjud bo'lмаган hunarmandchilik turlarini viloyatning boshqa tumanlaridan usta-hunarmandlarni jalb etish hisobiga shakllantirish.

Hududning o'ziga xosligidan kelib chiqib, sayyoohlar uchun quyidagi gastronomik turizm xizmatlari markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- milliy taomlar tayyorlash, sho'r danak va qurut klasteri, asalarichilik markazi, quritilgan meva va sabzavotlarni qadoqlash, ziravor va damlamalardan choy tayyorlash, nisholda va holva pishirish mahorat darslari, ko'k somsa, bichak, piyozi kulcha va non mahsulotlarini tayyorlash, meva va sabzavotlardan tabiiy sharbat tayyorlash.

Gastronomik turizm yo'nalishida "Shirin" MFYda milliy va sharq taomlari hamda qandolat mahsulotlari tayyorlash bo'yicha master klasslar tashkil etish:

- qishloqda milliy taomlar va qandolat mahsulotlarini tayyorlovchi tashabbuskorlarni aniqlash.

Qadimiy va unutilib ketayotgan quyidagi tansiq taomlarni tayyorlashga ixtisoslashgan xonadonlarni tashkil etish:

- yo'rgam, jag'ir-bug'ir, yopma baliq, baliq sho'rva, moshxo'rak, go'shtnut, qiyimali atala, uzmantoy, g'ilindi, g'almana, anor va piyozdan tayyorlangan salat, piyova, olxo'ri do'lma, qaymoq sho'rva, shopirma, qoqirim, tuxumli jo'xori, o'moch, tuxum hasip, bug'lama barra, kifta sho'rva, do'ndirma kabob, ichi qovoq ubti qiyima somsa, sumalak, yorma.

Turistlar uchun nihoyatda qiziqarli sanaluvchi madaniy tadbirlar dasturlari namoyishini tashkil etish va milliyligimiz tarannumiga asosiy urg'u qaratish:

- "Shirin" MFYda har yili avgust oyining ikkinchi dekadasida "Asal sayli" festivalini o'tkazish;

– qishloq ayollari folklor jamoasi tomonidan sayyoohlarga madaniy-ko'ngilochar chiqishlarni tashkil etish;

– "Shirin" MFYda tuman madaniyat bo'limining "Navnihol" milliy etnografik folklor jamoasi tomonidan kuy-qo'shiqlar, marosimlar, qadriyatlar va an'analarni ko'rsatib beruvchi chiqishlar tashkil etish.

Hududning mavjud infratuzilmaviy imkoniyatlari tahlili natijasida, fikrimizcha "Shirin" MFY hududida quyidagi qo'shimcha turistik xizmatlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- mahala hududida ovqatlanish shahobchalari, estetik xonadonlar, sanitariya gigiyena shahobchalari tashkil etish;

– M-37 magistralidan "Shirin" MFYgacha bo'lgan 1,5 kmlik hududda ekotransport vositalari, ya'ni riksha xizmatini yo'lgan qo'yish;

- 50 xildagi gul va giyohlar yetishtiradigan "Aromatik bog"" barpo etish;

– turistik mavsumga ko'ra uzumzor, paxtazor, baliqchilik va ipakchilik bilan band bo'lgan xonadonlarda turistik sayohat tashkil etish;

– Vobkent tumanidagi 14-o'rta umumta'lim maktabiga turistik sayohatlar tashkil etish va bu orqali yoshlarning turizmga qiziqishini oshirish;

– "Shirin" turizm qishlog'idagi barcha turistik xizmatlarni aks ettirgan topografik xarita ishlab chiqish;

- "Shirin" turizm qishlog'ining maxsus turizm logotipini ishlab chiqish;

– "Shirin" turizm qishlog'i tarixi va uning mashhur shaxslari, mahalliy xalqning hajviy hikoyalari to'g'risida kitob tayyorlash va nashrdan chiqarish;

– “Shirin” turizm qishlog‘idagi eng qulay va ko‘rkam nuqtada maxsus “selfi zona” tashkil etish.

Bugungi kunda Shirin turizm qishlog‘i hududida tashabbuskor tadbirkorlar tomonidan turizm xizmatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan bir qator loyihibar amalga oshirilib kelinmoqda (1-jadval).

### 1-jadval

#### Shirin qishlog‘i hududida tashabbuskor tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihibar<sup>1</sup>

Nº	Tashabbuskor	Xizmat yo‘nalishi	Xizmat turlari	Izoh
1	O.T.Rasulov	“Shirin” MFY markazida zamonaviy , maishiy xizmat uyi tashkil etish	Supermarket, dorixona, go‘zallik saloni, axborot markazi, tikuv sexi, turoperator ofisi, pochta xizmati, avia va temir yo‘l chiptalari cassasi, suviner do‘koni, elektrotexnika buyumlar ustaxonasi, sartaroshxona, qandolatchilik va milliy shirinliklar tayyorlash sexi, oilaviy mehmon uyi, poyafzal ta‘mirlash ustaxonasi, kiyim kechak do‘koni, milliy choyxona, velosiped ijara markazi, nonvoyxona.	Buxoro viloyat turizmni rivojlantirish departamenti tomonidan loyiha tashabbuskori aniqlanib, hozirgi kunda qurilish ishlari boshlab yuborildi
2	S.R.Bobokalonov	“Shirin” MFY hududida etnoturizm markazini tashkil etish	Qadimiy tegirmonda makkajo‘xori va bug‘doy uni tortish jarayoni, tandirda non, bichak yopish, 20 xil turdag'i poliz ekinlari ekish, 20 xildagi mevali daraxtlardan iborat bog‘ yaratish, 5 ta o‘tov tayyorlash, baliqchilik hovuzi, chorvachilik burchagini tashkil etish (sigir, qo‘y, echki, tovuq, o‘rdak, kurka, quyon), meva va sabsavotlarni biologik yo‘l bilan yetishtirish, quritish va qadoqlash jarayoni, jun yigirish va jun mahsulotlarini tayyorlash, sayyohlarga tomorqadagi ekologik poliz mahsulotlaridan foydalangan holda mahalliy ovqatlar tayyorlash master klasini ko‘rsatish, sho‘rdanak va qurut tayyorlash klasteri, milliy folklor jamoalari chiqishlari, qishloq hayatini aks ettiruvchi buyumlar muzeyini tashkil etish, milliy hunurmandchilik burchagini tashkil etish	Tadbirkor tomonidan 0.8ga yerda tegishli loyihibar asosida qurilish ishlari amalga oshirilmoqda
3	R.Rahimov	Shirin qishlog‘ining kirish qismida arkalik darvoza qurish	Darvozaning ikki tomonida milliy restoran qurish	Tadbirkor tomonidan quriladigan darvoza loyihibar amalga oshirilmoqda

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Hozirgi kunga qadar yuqorida qayd etib o'tilgan tashabbuslar va g'oyalar natijasida, "Shirin" qishlog'ini "Shirin etnoturizm" qishlog'iga aylantirish yuzasidan quyidagilar amalga oshirildi:

1. "Shirin" qishlog'ining toposyomkasi tayyorlandi, "Shirin" qishlog'ining bosh rejasi, loyihasi va smeta-hujjatlari asosida, Vobkent tumani 4N155 "Vobkent sh-kuyi Kosari k-Chorbog'kent k-Neogan k" avtomobil yo'lining 8.5-10.856 km. qismini to'la ta'mirlandi.

2. "Etno turizm" hududida Wi-Fi nuqlarini barpo etish uchun tuman telekom tarmoqlari korxonasidan kerakli kabellar o'rnatilgan bo'lib, zamonaviy sanitariya-gigiyenik hamda tahorat qilish shahobchalarini barpo etish uchun aniq nuqtalar belgilangan holda bugungi kunda 2 ta tahorat qilish shahobchalari buniyod etildi.

3. Mavjud elektr liniyalarini yangilash va mavjud transformatorlarni ta'mirlash, qishloqdan o'tuvchi telefon tarmoqlari kabellarini tartibga keltirish bo'yicha bir qator amaliy ishlari boshlangan bo'lib, bugungi kunda 1 ta transformator o'rnatildi hamda unga tutash ma'nana eskirgan 22 ta simyog'ochlar yangi beton simyog'ochlarga almashtirildi.

4. "Shirin" MFY hududida chiqindi qutilari o'rnatiladigan nuqtalar belgilab olindi va "turizm qishlog'i" hududida manzaralari daraxtlar o'tqaziladigan joylar dislokatsiyasi va loyihasi qisman ishlab chiqilib, 200 dona manzaralni ko'chatlar o'tkazildi.

5. "Etno turizm" qishlog'idagi xizmat turlari ro'yxatini hamda hudud turistik jozibadorligini oshirish yuzasidan shoular va turistik maskanlarni tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilib, hozirda tuya va foytunlarda sayr qilish, ov turizmi kabi qo'shimcha xizmatlar yo'lga qo'yildi.

6. "Shirin" qishlog'ini "Shirin etnoturizm" qishlog'iga aylantirish yuzasidan qishloqda hunarmandlar markazi, qadimiy sandal uylar, dehqonchilik asbob-anjomlari tayyorlash, ot va tuyada sayr qilish, qadimiy tosh tegirmon, asalarichilik, sho'r danak va nisholda tayyorlash kabi udumlarni sahnalashtirish bo'yicha qishloq hayotini ko'rsatib beradigan etno qishloq va qishloq markazida maishiy xizmat uyi, milliy choyxona, savdo markazi, sport sog'lomlashtirish klubi va "Shirin Ethno House" markazi tashkil etildi.

7. Bugungi kunda 6 ta hunarmandchilik (kulolchilik, zardo'zlik, kashtado'zlik, yog'och o'ymakorligi, bo'yraboflik, miniyatyr va xattotlik) ustaxonalari qurilib, foydalanshga topshirildi.

8. Sayyoohlarga qadimda tayyorlangan tansiq va mazali taomlarning tayyorlanish usulblari bo'yicha master klasslar o'tkazish uchun maxsus joylar tayyorlanib, "Shirin" MFY hududida 2 ta milliy choyxona xalqaro va ichki sayyoohlarga xizmat ko'rsatish maqsadida o'z ish faoliyatini boshladi.

9. Milliy qadriyatlarimizni namoyon etuvchi laparlar, kuy-qo'shiqlar va boshqa marosimlar o'tkazilishini tashkil etish uchun "Shirin" MFYda mahalliy keksa yoshdagi ayollar va yoshlardan tashkil topgan "Navnihol" folklor jamoasi tashkil etildi.

10. "Shirin" MFY markazida zamonaviy, maishiy xizmat uyi tashkil etish borasida qurilish ishlari boshlab yuborildi.

Shunday qilib, Shirin qishlog'ining jozibador etno-turizm destinatsiyasiga aylantirilishi hamda marketing faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilishi natijasida, Shirin ethno housening turistlarni qabul qilish imkoniyatlari va daromadlari sezilarli miqdorda oshishiga, shuningdek, hududda ayni turdagil boshqa bir nechta mehmonxonalarining buniyod etilishiga zamin yaratilib, birinchidan, sayohatgohning yalpi daromadlari hajmi ko'payishiga erishilsa, ikkinchidan, raqobat muhitining yuzaga kelishi va xizmatlar sifatining mustahkamlanishi ta'minlanadi.

### Xulosa va takliflar

*Shirin qishlog'ida etno-turizm muhitini yaratish va uni jozibador destinatsiyaga aylantirish konsepsiyasini ishlab chiqish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:*

1. "Shirin" MFYni turizm qishlog'iga aylantirish Buxoro viloyatiga kelayotgan sayyoohlari sonini oshirishga turki bo'lib xizmat qiladi va tashrif buyuruvchi sayyoohlarning yurtimizda bo'lish kunlarini kamida bir kunga uzaytirilishiga xizmat qiladi. Bu esa yangi xizmat turlarini taklif etayotgan hamda yangidan tashkillashtirilayotgan sayohatgohlarning bosh maqsadlari sirasiga kiradi.

2. Hududdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy holatni yanada yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash, ularni turizm sohasi doirasida munosib ish o'rinalariga ega bo'lishlarida ko'maklashish

hisobiga tarmoqda band bo‘lganlar ulushini ko‘paytirish, qolaversa manfaatdor tomonlar pozitsiyasidan yondashilganda, ijtimoiy qatlamning sohadagi ulushini sezilarli miqdorda oshirilishiga erishish pirovard maqsadlardandir.

3. Shirin qishlog‘ining destinatsion turizm jozibadorligi shakllantirilishi natijasida bosqichma-bosqich unga yondosh bo‘lgan hududlarda turli xil turizm turlariga ixtisoslashgan sayohatgohlar yuzaga kela boshlaydi, natijada, Buxoro viloyatining turistik taklif imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi va xizmat turlari diversifikatsiyalanishi ta’minlanadi. Hududdagi infratuzilma sifati holatini yuksaltirish orqali mamlakatimizning an’naviy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy qadriyatlarini asrab-avaylash hamda unga omuxta bo‘lgan turizm muhiti shakllantirilishiga asos yaratiladi.

4. Mahalla hududida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish nafaqat turizm rivoji uchun, balki mahalliy aholi vakillari uchun infratuzilma imkoniyatlarining yaxshilanishiga, jamiyat hayotida muhim va ijobjiy o‘zgarishlar kuzatilishiga olib keladi.

5. Hududning jozibador destinatsiyaga aylantirilishi natijasida turistik tashriflar soni oshirilib borib, hisob-kitoblarimizga ko‘ra, agar Shirin ethno house joylashtirish vositasi yiliga 5000 nafar turistni o‘zida qabul qilishiga erishilsa, 1 898 655 000 so‘mdan, 5 063 080 000 so‘mgacha daromad olish imkoniyati yuzaga keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 28.09.2022 yildagi 543-sod . 2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/-6212874>
2. Formica S. Destination attractiveness as a function of supply and demand interaction. – Virginia Polytechnic Institute and State University, 2000.
3. Leiper, Neil. The framework of tourism: towards a definition of tourism, tourist, and the tourist industry // Annals of Tourism Research. – 1973. – № 6(4). – Pp. 390–407.
4. Plog, S.C. Why destination areas rise and fall in popularity // The Cornell Hotel and Restaurant Administration Quarterly. – 1973. – № 14. – Pp. 55–58.
5. Althof W. Incoming-Tourismus. Muenchen; Wien; Oldenbourg, 1996.
6. Маматкулов Х.М. Хизмат курсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар изоҳли лугати. -Т.: "Iqtisod-Moliya" 2010. - 398 б.
7. Н.С.Ибрагимов. Туристик худудни барқарор ривожланишишнинг устувор йўналишлари [Матн]: монография / - Бухоро: "Sadreddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 204 б.
8. Н.Б.Навруз-Зода, Н.С.Ибрагимов. Туристик худуд рақобатбардошлигининг кўп даражали модели [Матн] / Бухоро: "Sadreddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2018. - 160 б.